XALQ DEPUTATLARI KOSONSOY TUMAN KENGASHINING

Q A R O R I

2023 - yil 28 - dekabr VI-67-123-6-80-K/23 Kosonsoy tuman hokimligi

Namangan viloyati Kosonsoy tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2023-yil 25- dekabrdagi O‘RQ-886-sonli Qonuni hamda Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi VI-41-119-6-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq hamda Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 27-dekabrdagi 01-14/20-01-32/806/1-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Kosonsoy tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2023-yil 25- dekabrdagi O‘RQ-886-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi VI-41-119-6-0-K/23-sonli qaroriga ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2023-yil 27-dekabrdagi VI-41-119-6-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq, Namangan viloyati Kosonsoy tumani mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 72 248 883,0 ming so‘m, xarajatlari 226 686 542,0 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyatning viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 154 437 659,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Kosonsoy tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun viloyat budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin

5. 2024-yil uchun Kosonsoy tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2024-yil uchun Kosonsoy tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2 543 663,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

8. 2024-yil uchun viloyatning Kosonsoy tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 885 671,0 ming so‘mga belgilansin.

9. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan-yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

b) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yuridik shaxslarning foyda solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar;

davlat aktivlarini sotishdan tushumlar;

tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari), shuningdek mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar, tegishincha o‘tgan moliya-yilining 1 iyul holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan viloyat aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq. Bunda daromadlar bo‘yicha prognozning bajarilmagan qismi viloyat budjetiga respublika budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

v) viloyat budjeti hamda Kosonsoy tumani mahalliy budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

jarimalar;

yig‘imlar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan tushumlar;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq.

10. Kosonsoy tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Toshpulatov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (Y.Kamolov), Soliq inspeksiyasi (A.Xolmatov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Kosonsoy tuman soliq inspeksiyasi (A.Xolmatov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

12. Kosonsoy tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Toshpulatov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Y.Kamolov):

Kosonsoy tuman budjetlarida ajratilgan mablag‘lardan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga hamda mahalliy budjetlarda shakllangan qo‘shimcha manbalarning kamida
30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, Kosonsoy tumani xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi tuman bo‘limi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul

etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

13. Mazkur qaror “Kosonsoynoma” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda Kosonsoy tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

14. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Kosonsoy tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (A.Jalolov) va Kosonsoy tumani hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Kosonsoy tuman Kengashi raisi **D.Kadirov**

Xalq deputatlari Kosonsoy tuman
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-67-123-6-80-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024 yil uchun Kosonsoy tumani mahalliy byudjeti daromadlari prognozi

ming.so‘m

Daromad turlari		**Kosonsoy tumani**
1	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9 461 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	11 208 000
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 546 000
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 101 086
5	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	200 000
6	Korxonalar aylanmasidan soliq	6 816 000
7	Jarimalar	1 436 700
8	Yig‘imlar	4 601 017
9	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	147 578
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	32 731 502
JAMI		**72 248 883**

Xalq deputatlari Kosonsoy tuman
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-67-123-6-80-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun Namangan viloyatining viloyat byudjetidan Kosonsoy tuman maxalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdori	*shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar**
1	Kosonsoy tumani	154 437 659	38 545 821

* tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar.

Xalq deputatlari Kosonsoy tuman
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-67-123-6-80-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024 yil uchun Kosonsoy tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori

ming so‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar	Kosonsoy tumani
Kosonsoy tuman byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar jami		**226 686 542,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	201 650 595,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	0,0
	tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi	2 016 506,0
	Tashabbusli byudjet jamg‘armasi	23 019 441,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
1	**Kosonsoy tuman maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi**	**40 307 163,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	40 307 163,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Kosonsoy tuman Tibbiyot birlashmasi**	**98 606 029,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	98 606 029,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Kosonsoy tuman Madaniyat bo‘limi**	**6 058 048,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 058 048,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Kosonsoy tuman Yoshlar siyosati va sport bo‘limi**	**11 469 499,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 469 499,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Kososnoy tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**2 432 020,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 432 020,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Kosonsoy tuman Irrigatsiya bo‘limi**	**2 238 673,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 238 673,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Kosonsoy tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**5 723 757,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 723 757,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Kosonsoy tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash**	**1 741 662,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 741 662,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Kosonsoy tuman Soliq inspeksiyasi**	**5 067 039,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 067 039,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Kososnoy tuman hokimligi** *(Obodonlashtirish boshqarmasi hamda Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi muassasalar)*	**53 042 652,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	28 006 705,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi	2 016 506,0
	Tashabbusli byudjet jamg‘armasi	23 019 441,0

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**Boshqalar**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Kosonsoy tuman Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-67-123-6-80-K/23-son qaroriga
4-ilova

2024 yil uchun Namangan viloyatining viloyat, shahar va tumanlar byudjetlari o‘rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar

(Foiz hisobida)(4-ilova daomi)

№	Hududlar nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Jismoniy shaxslar yer solig‘i		Yuridik shaxslar yer solig‘i		Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i		Korxonalar aylanmasidan soliq		Davlat boji		Jarimalar		Yig‘imlar		Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari		Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari		Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i		Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlar		Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	
		Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Shahar va tumanlar budjetiga	Viloyat budjetiga